

## ALISHER NAVOIY VA NAQSHBANDIYA TARIQATI

*Oqilov Ahrorjon Bahromjon o'g'li*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Sharq falsafasi va madaniyati yo'nalishi 3-kurs talabasi*

*E-mail: oqilovahrerjon@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining yetuk vakili mutasavvif Mir Alisher Navoiy va naqshbandiya tariqati haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'z:** Islom dini, tasavvuf, tariqatlar, naqshbandiya, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy

### Kirish

Islom dinining asosiy manbasi arab jaziralari hisoblanadi. Biroq uning yoyilishi va ilmiy rivojlanishiga islom askarlari tomonidan fath qilingan hududlarning aholisi ham ulkan hissa qo'shdi.

Ma'lumki, islom ta'limoti 3 qismga bo'linadi. Bular:

1. Fiqh;
2. Aqida;
3. Tasavvuf.

Islom fiqhida asosiy 4 mazhab mavjud. Islom aqidasi esa moturudiylik va ash'ariylik yetakchi mazhablardir. Tasavvufda tariqatlar bir qancha bo'lib, Markaziy Osiyoda asosan 3 ta tariqat keng yoyilgan. Ular quyidagilar:

1. Yassaviylik;
2. Kubroviylik;
3. Naqshbandiylik.

### Asosiy qism

Markaziy Osiyo tasavvuf tariqatlari orasida naqshbandiylik yetakchilik qiladi. Naqshbandiylik – tasavvuf tariqatlaridan biri Bahouddin Naqshband (1318-1389) asos solgan tariqat hisoblanadi. Tariqat negizi Abdul Xoliq G'ijduvoni hamda Bahouddin Naqshband tomonidan qo'yilgan.

Naqshbandiya tariqati sahobalardan Salmoni Forsiy va Abu Bakr Siddiq (r.a) lar orqali Muhammad Mustafo sollollohu alayhi vasallamga yetadi. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf "Tasavvuf haqida tasavvur" asarida naqshbandiya tariqatining 30 mashhur vakilini silsilaviy bayon etgan<sup>1</sup>.

Naqshbandiya tariqatining asosiy shiori "Dil ba yoru, dast ba kor" ya'ni "qo'ling mehnatda-yu, diling Allohda bo'lsin" hisoblanadi.

<sup>1</sup> Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. "Hilol-nashr". T.: 2021

Naqshbandiya tariqati 11 ta tamoyilga suyanadi. Bular:

1. Hush har dam – har bir nafasni hushyorlik bilan olish;
2. Nazar bar qadam – har bir qadamni ehtiyotkorlik bilan bosish;
3. Safar dar vatan – o‘z vatanida, uyida bo‘la turib fikran va zikran butun borliq haqida tafakkur yuritish;
4. Xilvat dar anjuman – o‘zi xalq ichida bo‘la turib, xilvatda o‘tirgandek Allohning zikrida bo‘lish;
5. Yod kard – til va dil bilan zikr qilish;
6. Boz gasht – zikr paytida xotirni parishon qilmay, Allohning yodida bo‘lish;
7. Nigoh gasht – bir nafasda “Kalimai toyyiba” ni dil huzuri bilan tilda takror qilish;
8. Yod dosht – Allohni mudom yod etib, g‘aflatdan saqlanish;
9. Vuqufi zamoniyy – o‘z holidan ogoh bo‘lib, shukr va uzrda bo‘lish;
10. Vuqufi abadiy – zikrlarda muayyan adadga rioya qilish;
11. Vuqufi qalbiy – dilni Alloh zikri bilan obod qilish<sup>2</sup>.

Naqshbandiya tariqatining mashhur vakillari bir qancha bo‘lib, Boyazid Bistomiy, Imom Rabboniy, Xoja Ahror va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Xususan, mashhur adib, g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy ham shu tariqatning vakili va yetuk hazratlaridan hisoblanadi. Hazrat Navoiy o‘zi yashab ijod etgan davrda ikki buyuk murshid bilan zamondosh bo‘ldi. Bular

1. Xoja Ubaydulloh Ahror q.s
2. Xoja Muhammad Zohid q.s

Alisher Navoiyning mashhur va e‘tiborli shayxlardan ekaniga yana shu ham dalil bo‘ladiki, Xoja Ahror tomonidan o‘z zamondoshlariga yozilgan anchagina ruq‘a — nomlari ham bizgacha yetib kelganki, ularni ham mazkur asarlar sirasiga kiritish joiz, chunki ularda muallifning o‘z davri ma‘naviy, ijtimoiy va siyosiy hayotida tutgan o‘rni aks etadi. Xatlar turli to‘plam va manoqiblar sahifalari orqali bizgacha yetib kelgan. Ulardan eng muhimi “Majmuayi murosalot” deb nomlangan XV asr dastxatlar to‘plami tarkibidagi ruq‘alardir. To‘plam Alisher Navoiy buyrug‘i bilan tuzilgan va shuning uchun “Navoiy albomi” deb ham ataladi (O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi, raqam 2178). Unda Xoja Ahrorning 128 dona ruq‘alari mavjud. Ular Samarqanddan Hirotga — Husayn Boyqaroga va aksari, Alisher Navoiyga yozilgan<sup>3</sup>.

Navoiyning o‘zi ham Xoja Ubaydulloh haqida “Nasoyim ul-Muhabbat” asarida bu haqida quyidagilarni yozadi:

<sup>2</sup> Falsafa(darslik). “Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa”. T.:2021

<sup>3</sup> [Хожа Ахрор Валий \(1404-1490\) - www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz)

Ul ruq'alarni muraqqa' yasab, mujallad qilib, jadval va takallufot bila tabarruk yo'suni bila asrabmen<sup>4</sup>.

Alisher Navoiy "Nasoyim ul-Muhabbat"ning 10 ga yaqin joyida Xoja Ubaydulloh nomini zikr qiladi.

Alisher Navoiy ijodini zohir va botin ilmiy nuqtai nazaridan tadqiq etish masalasida yetuk adabiyotshunoslarimiz Ibrohim Haqqul, Suyima G'aniyeva, Najmiddin Komilov, A. Hayitmetov, A. Qayumov, A. Rustamov, Y. Is'hoqov, S. Rafiddinovlarning alohida o'rni bor. Xususan, tasavvuf ta'limoti, naqshbandiylik tariqati mazmun-mohiyati jihatdan Navoiy ijodi bilan chambarchas bog'liqligi 1996-yilda chop etilgan Sultonmurod Olimning "Navoiy va Naqshband" nomli kitobida keng yoritilgan<sup>5</sup>.

Naqshbandiyaning asosiy axloqiy talablaridan "Hush dar dam" Navoiyning "Ermas ul Simurg'dan ayru dame", "Surati vaslida har dam Naqshband" misralari orqali tavsif etilgan<sup>6</sup>.

Alisher Navoiy faoliyatining naqshbandiya tariqati bilan o'zaro aloqadorligi bu tariqatni anglash uchun ham xizmat qiladi. O'z umrini ijodga bag'ishlab zuhdni afzal bildi. Aflotun: "Men umr bo'yi ichgan ichimligimdan ko'ra shamchirog'im uchun moyini ko'p sarf qiganman", degan ekan<sup>7</sup>. Navoiy ham shunday yashadi.

### Xulosa

Alisher Navoiy ijodida asosiy mezon sifatida islom dinini qabul qildi. Shu bilan birga Hazrat Navoiy islom diniga mansub naqshbandiya tariqatini mahkam ushladi. O'z davrida islom olamining naqshbandiya tariqati piri hisoblangan Xoja Ubayullohdan ruq'alar qabul qildi. Uning ijodi o'z davri va undan keyingi naqshbandiyalar uchun ham ibrat yo'li bo'ldi. Alisher Navoiy Xoja Ubaydulloh "Risolai volidiyya" asarida ta'kidlanganidek Rosululloh sollollohu alayhi vasallamga fe'lida, holida, qavlida ergashishga harakat qildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. "Hilol-nashr". T.: 2021
2. Falsafa(darslik). "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa". T.:2021
3. Хожа Аҳроп Валий (1404-1490) - [www.ziyouz.uz](http://www.ziyouz.uz)

<sup>4</sup> [Microsoft Word - navoiy\\_nasoyimul-muhabbat\\_lotin\\_ziyouz\\_com.doc \(namdu.uz\)](http://Microsoft Word - navoiy_nasoyimul-muhabbat_lotin_ziyouz_com.doc (namdu.uz))

<sup>5</sup> [View of ALISHER NAVOIYNING IJOD KONSEPTSIYASIDA NAQSHBANDIYA TARIQATINING ROLI \(wordlyknowledge.uz\)](http://View of ALISHER NAVOIYNING IJOD KONSEPTSIYASIDA NAQSHBANDIYA TARIQATINING ROLI (wordlyknowledge.uz))

<sup>6</sup> NAVRO'ZOVA G. Navoiy va naqshbandiya ta'limoti. Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar - Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2022. 3 (63). 5-10.  
URL: <https://www.ajhuman.uz/article/409802949111/abstract>

<sup>7</sup> To'raev, L. A. O. G. L., & Nizomova, N. Q. (2023). SHARQ ALLOMALARINING DUNYOQARASHIDA TA'LIM-TARBIYA MASALASI. *International scientific journal of Biruni*, 2(1), 16-20.

4. Microsoft Word - navoiy\_nasoyimul-muhabbat\_lotin\_ziyouz\_com.doc (namdu.uz)
5. View of ALISHER NAVOIYNING IJOD KONSEPTSIYASIDA NAQSHBANDIYA TARIQATINING ROLI (wordlyknowledge.uz)
6. NAVRO'ZOVA G. Navoiy va naqshbandiya ta'limoti. Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar - Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2022. 3 (63). 5-10.  
URL: <https://www.ajhuman.uz/article/409802949111/abstract>
7. To'raev, L. A. O. G. L., & Nizomova, N. Q. (2023). SHARQ ALLOMALARINING DUNYOQARASHIDA TA'LIM-TARBIYA MASALASI. International scientific journal of Biruni, 2(1), 16-20.